



## O'ZBEKISTON AXBOROT BOZORINING TUZILISHI VA BOZOR MUVOZANATI

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich,

Farg'ona davlat texnika universiteti, "Iqtisodiyot" kafedrasini mudiri, i.f.d., professor.

e-mail: [ibroxim.ismanov@fstu.uz](mailto:ibroxim.ismanov@fstu.uz)

Abdusalomova Ziyatbegim Otabek qizi,

Farg'ona davlat texnika universiteti, talabasi.

e-mail: [zabdusalomova151@gmail.com](mailto:zabdusalomova151@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18iB.1654>

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

**Qabul qilindi:** 18-may 2026-yil

**Tasdiqlandi:** 21-may 2026-yil

**Jurnal soni:** 18-B

**Maqola raqami:** 1

**KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА**

axborot bozori, raqamli iqtisodiyot, bozor muvozanati, axborot asimmetriyasi, telekommunikatsiya xizmatlari, elektron tijorat, sun'iy intellekt, raqamli platformalar, signalizatsiya mexanizmi, raqamli infratuzilma

Mazkur maqolada O'zbekistonda axborot bozori tuzilishi, uning iqtisodiy mazmuni, rivojlanish xususiyatlari hamda bozor muvozanatini shakllantiruvchi asosiy omillar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida axborot bozorining tarkibiy elementlari, ularning iqtisodiy tizimdagi funksional vazifalari, raqamli texnologiyalar asosida o'zaro integratsiyalashuv darajasi va rivojlanish tendensiyalari kompleks yondashuv asosida baholandi. Shuningdek, axborot bozori shakllanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy, institutsional va texnologik omillar, iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi munosabatlar hamda raqamli transformatsiya jarayonlarining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri o'rganildi. Axborot asimmetriyasi, bozor ishonchligi, signalizatsiya mexanizmlari va iste'molchilar xatti-harakatlariga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilindi. Natijalar axborot sifati, raqamli platformalar shaffofligi, foydalanuvchilar ishonchi va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish axborot bozori barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, axborot xavfsizligini mustahkamlash hamda sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishning istiqbolli yo'nalishlari asoslab berildi.

ABOUT THE PAPER

ANNOTATION

**Accepted:** 18 may 2026

**Approved:** 21 may 2026

**Volume:** 18-B

**Paper number:** 1

**KEYWORDS**

information market, digital economy, market equilibrium, information asymmetry, telecommunication services, electronic commerce, artificial intelligence, digital platforms, signaling mechanism, digital infrastructure

This article scientifically examines the structure of the information market in Uzbekistan, its economic essence, development characteristics, and the main factors shaping market equilibrium. The research applies a comprehensive approach to analyze the structural components of the information market, their functional role within the economic system, the level of integration of digital technologies, and current development trends. In addition, economic, institutional, and technological factors influencing the formation and development of the information market, relationships among economic entities, and the impact of digital transformation processes on economic efficiency were investigated. Issues related to information asymmetry, market reliability, signaling mechanisms, and factors affecting consumer behavior were also analyzed. The findings indicate that information quality, transparency of digital platforms, user trust, and the implementation of innovative technologies play a significant role in ensuring the sustainable development of the information market. Furthermore, perspective directions for improving digital infrastructure, strengthening information security, and effectively utilizing artificial intelligence technologies were substantiated.

**Kirish.** Bugungi globallashuv va texnologik transformatsiya sharoitida axborot iqtisodiy resurs sifatida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarish omillari tarkibida axborot va bilim kapitalining ulushi ortib borayotgani natijasida iqtisodiy munosabatlarning yangi shakli - raqamli iqtisodiyot tizimi shakllanmoqda. Bu axborot bozorining iqtisodiy tizimdagi o'rnini tubdan o'zgartirib, uni milliy iqtisodiyotning eng muhim tarkibiy segmentlaridan biriga aylantirmoqda [1].

Shu nuqta nazardan, O'zbekistonda axborot bozorining tuzilishi, uning institutsional rivojlanish tendensiyalari hamda bozor muvozanatini ta'minlash mexanizmlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga keng joriy etish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmog'da. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi mamlakatda axborot infratuzilmasini rivojlantirish, elektron xizmatlar ulushini kengaytirish, raqamli boshqaruv mexanizmlarini joriy etish hamda axborot xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi [2]. Ushbu strategik dastur axborot bozorining institutsional asoslarini mustahkamlash va raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida raqamli texnologiyalar va axborot tizimlarini rivojlantirish masalasiga alohida urg'u berib, "Bugungi davrda raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning barcha sohalarida hal qiluvchi omilga aylangan" deb ta'kidlagan [3]. Mazkur yondashuv

mamlakat iqtisodiyotida axborot resurslarining strategik ahamiyatini oshirib, axborot bozorining tarkibiy rivojlanishini jadallashtirmoqda. Shuningdek, davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan "raqamli transformatsiya" [4] konsepsiyasi iqtisodiyotning turli tarmoqlarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali samaradorlikni oshirishga qaratilgan bo'lib, bu holat axborot bozorida talab va taklif munosabatlarining yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda.

Axborot bozori o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra an'anaviy bozorlardan sezilarli darajada farq qiladi. Mazkur bozorda asosiy mahsulot sifatida moddiy ne'matlar emas, balki ma'lumotlar bazalari, dasturiy mahsulotlar, raqamli platformalar, telekommunikatsiya xizmatlari, internet resurslari hamda intellektual texnologiyalar muomalaga kiradi. Shu sababli axborot bozori yuqori darajadagi innovatsionlik, texnologik dinamizm va institutsional moslashuvchanlik bilan tavsiflanadi [5]. Axborot bozori tarkibiga dasturiy ta'minot bozori, telekommunikatsiya xizmatlari bozori, elektron tijorat tizimlari, bulutli texnologiyalar, media platformalar hamda sun'iy intellekt asosidagi xizmatlar kiradi. Mazkur segmentlarning o'zaro integratsiyalashuvi bozorning murakkab iqtisodiy tizim sifatida shakllanishiga sabab bo'lmoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi natijasida axborot bozori zamonaviy iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Axborot resurslari, raqamli xizmatlar, media platformalar va kommunikatsion texnologiyalar iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Shu bois axborot bozori tuzilmasi, undagi institutsional aloqalar hamda bozor muvozanatini ta'minlash omillari mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan.

Mahalliy tadqiqotchilar orasida mediasavodxonlik, axborot madaniyati va raqamli kommunikatsiyalar masalalari alohida o'rin egallaydi. Jumladan, B.S. Abdullayeva, Y.Z. Ro'ziyev va K.V. Ismoilova axborot madaniyati va media savodxonlikning iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanishdagi rolini tahlil qilganlar. Mualliflarning fikricha, global axborot makonida axborotni tahlil qilish, saralash va undan oqilona foydalanish ko'nikmalarining shakllanishi axborot bozori samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [6]. Tadqiqotda media texnologiyalarining kengayishi axborot oqimlari hajmini keskin oshirayotgani hamda bu holat raqamli iqtisodiyotning yangi infratuzilmasini shakllantirayotgani asoslab berilgan.

D.T. Xudayberganov bozor tuzilmasi va hududiy bozorlarni rivojlantirish masalalarini o'rganar ekan, bozor samaradorligining asosiy omillaridan biri sifatida axborot almashinuvi tizimini ko'rsatadi [7]. Olimning ta'kidlashicha, bozor subyektlari o'rtasida tezkor va ishonchli axborot oqimining mavjudligi bozor muvozanatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv axborotning iqtisodiy resurs sifatidagi rolini ochib beradi.

A. Suyarov va M. Normurodova internet kommunikatsiyalari va tezkor muloqot vositalarining iqtisodiy ahamiyatini tadqiq qilganlar. Ularning ilmiy qarashlariga ko'ra, messenjerlar, ijtimoiy tarmoqlar va videoaloqa platformalari axborot bozorining yangi segmentlarini shakllantirib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida axborot almashinuvi samaradorligini oshirmoqda [8]. Ayniqsa, raqamli kommunikatsiya vositalarining biznes va davlat boshqaruvida keng qo'llanilishi axborot xizmatlariga bo'lgan talabni orttirayotganligi qayd etilgan.

Rossiyalik olimlar I.S. Goryuxin va A.Ya. Ryabina axborot bozorini milliy iqtisodiyotning strategik tarmog'i sifatida baholaganlar [9]. Mualliflarning fikricha, axborot mahsulotlari va xizmatlari ulushining ortishi iqtisodiy taraqqiyotning muhim indikatorlaridan biri hisoblanadi. Ular axborot bozorini bozor iqtisodiyotining "asab tizimi" sifatida talqin qilib, axborot oqimlari iqtisodiy qarorlar samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini asoslab berganlar.

B.Zh. Tagarov global axborot bozori xususiyatlarini tahlil qilib, axborot mahsulotlarining an'anaviy tovarlardan farqli jihatlarini yoritgan [10]. Tadqiqotda axborot mahsulotlari takror ishlab chiqarish xarajatlarining pastligi, innovatsion xarakteri va yuqori intellektual qiymati bilan ajralib turishi qayd etiladi. Shuningdek, muallif global axborot bozori rivojlangan davlatlarning iqtisodiy ustunligini kuchaytirayotganini ta'kidlaydi.

M.A. Alekseev va P.N. Lixutin moliyaviy bozor axborot makonini tadqiq etib, axborot oqimlarining investitsion qarorlar qabul qilishdagi rolini ochib berganlar [11]. Ularning yondashuviga ko'ra, axborotning ochiqligi, haqqoniyligi va tezkorligi moliyaviy bozor barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda axborot bozori nazariyasi chuqur ishlab chiqilgan. Dirk Bergemann va Alessandro Bonatti axborot bozorlari iqtisodiyotiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarida axborot mahsulotlari, vositachilar va raqamli platformalarning iqtisodiy tizimdagi rolini keng yoritganlar [12]. Olimlar axborot savdosi reklama, reyting, tavsia va prognozlash tizimlari orqali amalga oshirilishini hamda sun'iy intellekt asosidagi texnologiyalar axborot bozorining yangi rivojlanish bosqichini shakllantirayotganini asoslab berganlar.

Nasim Rahaman va hammualliflar sun'iy intellekt hamda til modellari yordamida axborot bozoridagi axborot assimetriasini kamaytirish masalalarini tadqiq qilganlar [13]. Tadqiqotda axborot bozori ishtirokchilari o'rtasidagi nomutanosiblikni kamaytirishda

sun'iy intellekt tizimlari samarali vosita bo'lib xizmat qilishi ko'rsatib berilgan.

Itay Goldstein moliyaviy bozorlardagi axborot oqimlari va ularning real iqtisodiyotga ta'sirini o'rganib, bozor narxlarini iqtisodiy subyektlar uchun muhim axborot manbai ekanligini ta'kidlaydi [14]. Muallifning fikricha, moliyaviy bozorlar turli iqtisodiy agentlarning ma'lumotlarini umumlashtirish orqali samarali iqtisodiy signal vazifasini bajaradi.

Forrest Watson va Yinglu Wu raqamli marketing tizimida onlayn sharhlarning axborot oqimlariga ta'sirini tadqiq etganlar [15]. Ularning xulosalariga ko'ra, onlayn sharhlar iste'molchilar xatti-harakatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatib, raqamli bozorda talab va taklif muvozanatini shakllantirishda muhim omilga aylanmoqda.

Ismail Lotfi va hammualliflar Metaverse hamda IoT texnologiyalari asosida shakllanayotgan yangi axborot bozori mexanizmlarini o'rganib, semantik axborot marketingi konsepsiyasini ilgari surganlar [16]. Tadqiqotda sun'iy intellekt, raqamli egizaklar va axborot almashinuvi texnologiyalari kelajakdagi axborot bozori rivojlanishining asosiy drayverlari sifatida baholangan.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, axborot bozori zamonaviy iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylani bormoqda. Tadqiqotlarda asosan axborot mahsulotlari iqtisodiy tabiati, raqamli kommunikatsiyalar, axborot oqimlari, sun'iy intellekt, media texnologiyalar hamda axborot assimetriyasi masalalari yoritilgan. Shu bilan birga, O'zbekistonda axborot bozori tuzilmasi va bozor muvozanatini ta'minlash mexanizmlarini kompleks iqtisodiy tahlil qilishga oid ilmiy izlanishlar yetarli darajada shakllanmagan. Mazkur tadqiqot ushbu yo'nalishdagi ilmiy bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda axborot bozori tuzilishi hamda bozor muvozanatini shakllantiruvchi iqtisodiy omillarni o'rganishda kompleks ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy tahlil usullarining o'zaro integratsiyasi asosida shakllantirildi.

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tizimli ravishda baholash imkonini beruvchi ilmiy tadqiqot metodlari qo'llanildi. Jumladan ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashda ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, statistik tahlil hamda iqtisodiy-mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil yordamida axborot bozorining asosiy segmentlari va ularning iqtisodiyotdagi o'rni baholandi.

**Natijalar.** Raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi natijasida axborot bozori iqtisodiyotning eng muhim strategik segmentlaridan biriga aylanmoqda. Zamonaviy iqtisodiyotda axborot nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki iqtisodiy resurs, raqobat ustunligi va innovatsion rivojlanish omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli O'zbekistonda axborot bozori tuzilishi, undagi institutsional munosabatlar hamda bozor muvozanatini shakllantiruvchi omillarni chuqur tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda axborot bozori ko'p bosqichli va murakkab iqtisodiy tizim sifatida shakllanmoqda. Bozor tarkibida telekommunikatsiya xizmatlari, elektron tijorat, media platformalar, dasturiy mahsulotlar bozori, sun'iy intellekt xizmatlari, bulutli texnologiyalar hamda analitik axborot platformalari asosiy segmentlar sifatida faoliyat yuritmoqda. Ushbu segmentlarning o'zaro integratsiyalashuvi axborot oqimlarining tezligini oshirib, iqtisodiy jarayonlarning raqamlashtirilishiga xizmat qilmoqda.

1-jadval

**O'zbekistonda axborot bozori segmentlarining iqtisodiy tavsifi<sup>1</sup>**

Axborot bozori segmentlari	Asosiy funksiyasi	Iqtisodiy ta'siri
Telekommunikatsiya xizmatlari	Internet va mobil aloqa	Axborot infratuzilmasini shakllantiradi
Elektron tijorat platformalari	Raqamli savdo operatsiyalari	Savdo xarajatlarini kamaytiradi
IT xizmatlar bozori	Dasturiy mahsulotlar yaratish	Innovatsion rivojlanishni ta'minlaydi
Media va reklama bozori	Axborot tarqatish	Iste'molchilar xatti-harakatiga ta'sir qiladi
Big Data va analitika	Ma'lumotlarni qayta ishlash	Strategik qarorlarni optimallashtiradi
Elektron hukumat tizimi	Davlat xizmatlarini raqamlashtirish	Boshqaruv samaradorligini oshiradi

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, axborot bozorining rivojlanish darajasi mamlakatdagi internet qamrovi va raqamli infratuzilma holati bilan bevosita bog'liqdir. So'nggi yillarda internet foydalanuvchilari

sonining ortishi elektron xizmatlarga talab hajmining keskin oshishiga olib kelgan. Natijada raqamli platformalar iqtisodiyotning yangi institutsional shakliga aylana boshladi.

<sup>1</sup> Jadval tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Shuningdek, tadqiqot natijalari axborot bozorida klassik iqtisodiy bozorlarga xos bo'lmagan ayrim o'ziga xos xususiyatlar mavjudligini ko'rsatdi. Axborot mahsulotlari moddiy mahsulotlardan farqli ravishda quyidagi iqtisodiy xususiyatlarga ega:

- bir vaqtning o'zida cheklanmagan miqdordagi foydalanuvchilar tomonidan iste'mol qilinishi;
- nusxa ko'paytirish xarajatlarining juda pastligi;
- axborot qiymatining vaqt o'tishi bilan tez o'zgarishi;
- tarmoq effektining mavjudligi;
- asimmetrik axborot muammosining yuqori darajada namoyon bo'lishi.

Ayniqsa, axborot asimmetriyasi muammosi O'zbekistondagi raqamli platformalar faoliyatida yaqqol kuzatilmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ayrim hollarda xizmat ko'rsatuvchilar iste'molchilarga nisbatan ko'proq va sifatliroq axborotga ega bo'lib, bu

holat bozor muvozanatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada iste'molchilar noto'g'ri qaror qabul qilishi yoki sifatsiz xizmatlarni xarid qilishi mumkin.

George Akerlof tomonidan ishlab chiqilgan "limonlar modeli" ushbu jarayonni tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [17]. Mazkur modelga ko'ra, bozorda sifat haqidagi aniq ma'lumotlarning mavjud emasligi yuqori sifatli mahsulot va xizmatlarning bozordan siqib chiqarilishiga olib keladi. O'zbekistondagi ayrim onlayn platformalarda ham shunga o'xshash holatlar kuzatilmoqda. Jumladan, noto'g'ri reklama, tekshirilmagan ma'lumotlar hamda sun'iy reyting tizimlari iste'molchilar ishonchini pasaytirib, bozorda sifatsiz axborot ulushining ortishiga sabab bo'lmoqda.

Quyidagi sxemada axborot asimmetriyasi shakllanish jarayoni ifodalangan.

1-sxema. Axborot asimmetriyasining bozor ishonchligi va xizmatlar sifati pasayishiga ta'sir mexanizmi<sup>2</sup>



Mazkur jarayon uzoq muddat davom etsa, bozorda "raqamli ishonchsizlik muhiti" yuzaga kelishi mumkin. Bu esa elektron tijorat, fintech va media platformalar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, axborot bozorida signalizatsiya mexanizmlarining mavjudligi muvozanatni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Michael Spence tomonidan ishlab chiqilgan signalizatsiya nazariyasiga ko'ra, sifatli xizmat ko'rsatuvchilar o'zining ishonchligini iste'molchilarga turli signal vositalari orqali namoyon qiladi. O'zbekistonda bunday signallarga quyidagilar kiradi:

- litsenziya va sertifikatlar;
- davlat akkreditatsiyasi;

- platforma verifikatsiyasi;
- foydalanuvchi reytinglari;
- brend obro'si;
- rasmiy veb-saytlar;
- kibernetika kafolatlari.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, iste'molchilar rasmiy verifikatsiyaga ega platformalarga ko'proq ishonch bildiradi. Ayniqsa, elektron to'lov tizimlari va marketplace platformalarida "tasdiqlangan sotuvchi" belgisi xarid qarorlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

2-jadval

Signalizatsiya omillarining iste'molchi ishonchiga ta'siri<sup>3</sup>

Signal turi	Iste'molchi ishonchiga ta'siri	Bozor muvozanatiga ta'siri
Davlat litsenziyasi	Juda yuqori	Shaffoflik va ishonchlikni oshiradi
Platforma verifikatsiyasi	Yuqori	Sifatsiz xizmatlar ulushini kamaytiradi
Foydalanuvchi sharhlari	Yuqori	Iste'molchi qarorlarini optimallashtiradi
Brend reputatsiyasi	O'rta	Uzoq muddatli raqobat ustunligini yaratadi
Reklama hajmi	Past	Qisqa muddatli talabni shakllantiradi
Sun'iy reytinglar	Salbiy	Bozor ishonchligini pasaytiradi

Natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, bozorda shaffoflik darajasi oshgan sari axborot sifati ham yaxshilanadi. Bu esa bozor muvozanatini mustahkamlaydi hamda tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi.

Tadqiqot davomida O'zbekistondagi elektron tijorat platformalari faoliyati ham tahlil qilindi. Jumladan, marketplace tizimlarida algoritmik tavsiyalar, foydalanuvchi sharhlari va sun'iy intellekt asosidagi segmentatsiya mexanizmlari bozor muvozanatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Elektron platformalarda quyidagi iqtisodiy mexanizm kuzatilmoqda:

1. Sotuvchilar mahsulot bo'yicha axborot joylashtiradi;

2. Xaridorlar reyting va sharhlar orqali mahsulot sifatini baholaydi;

3. Platforma algoritmlari talabni prognoz qiladi;

4. Sun'iy intellekt tavsiya tizimlari individual reklama yaratadi;

5. Talab va taklif real vaqt rejimida muvozanatlashadi.

Bu esa "raqamli bozor muvozanati" tushunchasining shakllanishiga olib kelmoqda. Axborot bozori muvozanati quyidagi iqtisodiy tenglik asosida ifodalangani:

$$Q_d = Q_s$$

Bu yerda:

$Q_d$  — axborot mahsulotlariga bo'lgan talab;

$Q_s$  — axborot xizmatlari va mahsulotlari taklifi.

<sup>2</sup> Jadval tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan

<sup>3</sup> Jadval tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Agar bozorda talab taklifdan yuqori bo'lsa, axborot mahsulotlari narxi ortadi va xizmat sifati bo'yicha raqobat kuchayadi. Aksincha, taklif hajmining ortishi platformalar o'rtasidagi konsolidatsiya jarayonlarini kuchaytiradi.

Shuningdek, tadqiqot davomida "raqamli ishonch indeksi" yondashuvi asosida foydalanuvchilarning platformalarga bo'lgan ishonchi nazariy jihatdan baholandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, iste'molchilarning asosiy qismi rasmiy verifikatsiyaga ega, foydalanuvchi sharhlari ochiq bo'lgan va axborot siyosati shaffof platformalarni tanlashga moyildir.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi axborot bozori samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani aniqlandi. AI texnologiyalari quyidagi yo'nalishlarda axborot bozori faoliyatini optimallashtirmoqda:

- katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash;
- iste'molchi xatti-harakatini prognoz qilish;
- reklama segmentatsiyasi;
- axborot oqimlarini filtrlash;
- kiberxavfsizlikni ta'minlash;
- yolg'on axborotlarni aniqlash.

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda axborot bozori jadal rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyot segmentlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Tahlillar davomida bozorda axborot asimmetriyasi mavjudligi, bu esa iste'molchilar qaroriga va bozor muvozanatiga salbiy ta'sir qilishi aniqlandi. George Akerlofning "limonlar modeli" sifatsiz axborot xizmatlari ulushining ortishini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

Shuningdek, signalizatsiya mexanizmlarining rivojlanishi iste'molchilar ishonchini oshirish va bozor shaffofligini ta'minlashda muhim omil ekanligi aniqlandi. Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar esa axborot sifati hamda bozor samaradorligini oshirish imkonini bermoqda. Shu sababli raqamli savodxonlikni oshirish, axborot nazoratini kuchaytirish va shaffof platformalarni rivojlantirish axborot bozori barqarorligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

**Muhokama.** Olib borilgan tadqiqot natijalari O'zbekistonda axborot bozori iqtisodiyotning alohida strategik yo'nalishiga aylanib borayotganini ko'rsatdi. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida axborot iqtisodiy resurs sifatida yangi mazmun kasb etib, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqaruv jarayonlarining muhim tarkibiy unsuriga aylangan. Shu jihatdan, axborot bozori endilikda nafaqat kommunikatsion tizim, balki iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi institutsional mexanizm sifatida ham namoyon bo'lmoqda.

Tahlillar davomida axborot bozori tarkibida telekommunikatsiya xizmatlari, elektron tijorat platformalari, dasturiy mahsulotlar bozori, media resurslar hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining o'zaro integratsiyasi kuchayib borayotgani aniqlandi. Ushbu jarayon iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi axborot almashinuvini tezlashtirib, tranzaksiya xarajatlarini qisqartirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, raqamli platformalar iqtisodiyotda vositachilik funksiyasini bajarib, ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi aloqalarni soddalashtirmoqda.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari axborot bozori rivojlanishi bilan bog'liq ayrim muammolar mavjudligini ham ko'rsatdi. Eng avvalo, axborot asimmetriyasi masalasi bozordagi muvozanatga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayrim platformalarda xizmat ko'rsatuvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi ma'lumotlar tafovuti sifatsiz xizmatlar ulushining ortishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu esa foydalanuvchilar ishonchining pasayishiga hamda bozorda raqobat muhitining zaiflashishiga olib keladi. Ayniqsa, tekshirilmagan reklama ma'lumotlari, manipulyativ reyting tizimlari va sun'iy sharhlar raqamli bozorning shaffofligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tadqiqot davomida bozor ishonchligini shakllantirishda signalizatsiya mexanizmlarining ahamiyati yuqori ekanligi ham kuzatildi. Platforma verifikatsiyasi, davlat litsenziyalari, foydalanuvchi sharhlari va kiberxavfsizlik elementlari iste'molchilar uchun muhim ishonch omili sifatida xizmat qilmoqda. Ayniqsa, rasmiy tasdiqlangan

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bell, D. (2020). Post-industrial society. In The information society reader (pp. 86-102). Routledge.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "“Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son. <https://lex.uz/docs/-5030957>

platformalarga foydalanuvchilarning talab darajasi yuqoriroq ekanini aniqlandi. Bu esa axborot bozorida shaffoflik va ochiqlik iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi asosiy omillardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Natijalar sun'iy intellekt texnologiyalarining axborot bozori rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini ham tasdiqladi. AI asosidagi tavsiya tizimlari, ma'lumotlarni avtomatik tahlil qilish vositalari va iste'molchi xatti-harakatlarini prognozlash algoritmlari platformalarning moslashuvchanligini oshirmoqda. Natijada talab va taklif o'rtasidagi muvozanat real vaqt rejimida shakllanib, raqamli bozorning samaradorligi ortmoqda. Shu jihatdan, sun'iy intellekt texnologiyalari axborot bozorida yangi iqtisodiy modelning shakllanishiga zamin yaratmoqda.

Bundan tashqari, tadqiqotda hududlar kesimida raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasi bir xil emasligi aniqlandi. Ayrim hududlarda internet tezligi va raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi axborot bozorining to'liq integratsiyalashuviga to'sqinlik qilmoqda. Bu holat ayniqsa kichik biznes subyektlari va qishloq hududlari uchun sezilarli muammo hisoblanadi. Shu sababli raqamli infratuzilmani hududlar bo'yicha mutanosib rivojlantirish axborot bozori barqarorligini ta'minlashning muhim sharti sifatida baholandi.

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda axborot bozori rivojlanishining istiqbollari yuqori ekanligini ko'rsatdi. Biroq bozorda samarali muvozanatni ta'minlash uchun axborot sifati ustidan nazoratni kuchaytirish, raqamli savodxonlikni oshirish, shaffof platformalarni qo'llab-quvvatlash hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini iqtisodiyotga keng joriy etish zarur hisoblanadi. Mazkur chora-tadbirlar axborot bozori barqarorligini mustahkamlash va raqamli iqtisodiyotning uzoq muddatli rivojlanishiga xizmat qiladi.

**Xulosa va takliflar.** Tadqiqot natijalari O'zbekistonda axborot bozori raqamli iqtisodiyotning muhim va tez rivojlanayotgan segmentlaridan biriga aylanayotganini ko'rsatdi. Axborot resurslari, elektron platformalar va sun'iy intellekt texnologiyalarining keng qo'llanilishi iqtisodiy jarayonlar samaradorligini oshirib, bozor munosabatlarining yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Tadqiqot davomida axborot bozori tarkibida telekommunikatsiya xizmatlari, elektron tijorat, media platformalar va IT xizmatlarining o'zaro integratsiyasi kuchayib borayotgani aniqlandi. Bu esa axborot almashinuvini tezligini oshirish bilan birga iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi hamkorlik samaradorligini ham mustahkamlamoqda.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari axborot asimmetriyasi, sun'iy reytinglar va tekshirilmagan axborot oqimlari bozorda ishonchlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatdi. Ayniqsa, raqamli platformalarda shaffoflikning yetarli emasligi ayrim hollarda iste'molchilar manfaatlariga zarar yetkazishi mumkinligi aniqlandi. Shu sababli axborot bozori faoliyatida ishonchlik, ochiqlik va raqamli xavfsizlikni ta'minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Axborot bozori shaffofligini oshirish maqsadida raqamli platformalarda majburiy verifikatsiya tizimlarini keng joriy etish lozim;
2. Axborot asimmetriyasini kamaytirish uchun foydalanuvchi sharhlari va reyting tizimlari ustidan nazorat mexanizmlarini takomillashtirish zarur;
3. Hududlar o'rtasidagi raqamli tafovutni qisqartirish maqsadida internet infratuzilmasini yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq;
4. Aholining raqamli va media savodxonligini oshirishga qaratilgan ta'lim dasturlarini kengaytirish zarur;
5. Sun'iy intellekt texnologiyalarini elektron tijorat va axborot platformalarida keng qo'llash orqali bozor samaradorligini oshirish tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda axborot bozori iqtisodiy o'sish va raqamli transformatsiyaning muhim omillaridan biri sifatida shakllanmoqda. Mazkur bozorni samarali rivojlantirish uchun shaffoflikni ta'minlash, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish hamda axborot xavfsizligini mustahkamlash ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

3. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 22-fevral kuni soha va hududlarda raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish masalalari yuzasidan videosektor yig'ilishdagi nutqi. <https://digital.uz/oz/news/view/973>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

to'g'risida"gi Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

5. Castells, M. (2011). The rise of the network society. John Wiley & sons.

6. Abdullayeva, B. S., Ro'ziyev, Y. Z., & Ismoilova, K. V. (2024). Mediasavodxonlik va axborot madaniyati. Darslik. Toshkent.«Donishmand ziyosi.–2024.

7. Xudayberganov, D. T. (2025). HUDUDIY BOZOR TUZILMASI VA UNI ISLOH QILISH XUSUSIYATLARI. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 5(03), 23-27.

8. Musayevich, S. A. (2025). INTERNETDAGI TEZKOR MULOQOT VOSITALARI. Ustozlar uchun, 85(2), 50-56.

9. Горюхин, И. С. информационный рынок / И. С. Горюхин, А. Я. Рябина // Международная научно-техническая конференция молодых ученых, Белгород, 25–27 мая 2020 года. – Белгород: Белгородский государственный технологический университет им. В.Г. Шухова, 2020. – С. 5185-5189. – EDN AEVHRX.

10. Тагаров, Б. Ж. (2018). Особенности глобального рынка информационных товаров. Российское предпринимательство, 19(5), 1425-1436.

11. Алексеев, М. А., & Лихутин, П. Н. (2017). Методологические аспекты исследования информационного пространства финансового рынка. Вестник Самарского государственного экономического университета, (5), 65-74.

12. Bergemann, D., & Bonatti, A. (2019). Markets for information: An introduction. Annual Review of Economics, 11(1), 85-107.

13. Rahaman, N., Weiss, M., Wüthrich, M., Bengio, Y., Li, L. E., Pal, C., & Schölkopf, B. (2024). Language models can reduce asymmetry in information markets. arXiv preprint arXiv:2403.14443.

14. Goldstein, I. (2023). Information in financial markets and its real effects. Review of Finance, 27(1), 1-32.

15. Watson, F., & Wu, Y. (2022). The impact of online reviews on the information flows and outcomes of marketing systems. Journal of Macromarketing, 42(1), 146-164.

16. Lotfi, I., Niyato, D., Sun, S., Kim, D. I., & Shen, X. (2023). Semantic information marketing in the metaverse: A learning-based contract theory framework. IEEE Journal on Selected Areas in Communications, 42(3), 710-723.

17. Yu, F. (2021). Two Essays in Dynamic Learning Under Information Asymmetry (Doctoral dissertation, University of Minnesota).